

## PASHTU TILIDA REDUPLIKATSIYANING TURLARI

*Almardonov Ziyodulla Toshpo‘lat o‘g‘li*

*2-kurs magistratura lingvistika (pashtu) guruhi talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada pashtu tilida reduplikatsiyaning turlari masalasi yoritilgan, mavzu asl manbalardan olingan misollar asosida o‘rganilib chiqilgan hamda hozirgi zamon pashtu tilida reduplikatsiyalarni aniqlanib, ularning turlari, tuzilishi, mezonlari hamda ma‘nolari ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** reduplikatsiya, to‘liq va to‘liq bo‘lmagan reduplikatsiya, exokonstruksiya reduplikatsiya, alliteratsiya, ichki fleksiya, komponent, taqlidiy so‘z.

Reduplikatsiya” (lotincha reduplicatio-ikkilanish) so‘zni takror shaklda qo‘llash, takroriy so‘z hosil qilish usuli hisoblanadi<sup>1</sup> So‘zning o‘zagini to‘laligicha yoki qisman, negizini yoki butun so‘zning tovush tarkibini o‘zgartirmasdan (yoki qisman o‘zgarishi bilan) takrorlash yo‘li bilan so‘z, sintetik va tavsifiy shakllari va frazeologik birikmalarning yasaliş usullarini takror deb atash qabul qilingan. Demak, takror to‘la yoki qisman bo‘lishi mumkin va nafaqat yangi lug‘aviy birlik (so‘z va frazeologizmlar) yaratishi, balki sof grammatik va stilistik vazifalarini bajarishi mumkin.

Reduplikativ so‘zlar dunyoning barcha tillarida ishlatilsada, lekin ularning barchasiga yagona prinsip asosida yondashish mumkin emas. Barcha tillarning o‘ziga xos grammatik qoidalari, rivojlanish bosqichlari, xalqning turmush tarzi o‘sha tilga nisbatan bevosita yondashishni talab qiladi.

Rus afgonshunoslari L.S.Peysikov va Y.A.Rubinchiklarlar o‘z monografiyalarida reduplikativ so‘zlarni kopulyativ qo‘shma so‘zlar sifatida talqin qiladilar<sup>2</sup>.

Reduplikatsiya fonomorfologik hodisa bo‘lib, uning “to‘liq (so‘zning butun negizi takrorlanadi) to‘liq bo‘lmagan” (so‘zning faqat bir bo‘g‘ini takrorlanadi) ko‘rinishlari mavjud<sup>2</sup>.

Demak pashtu tilida takror so‘zlar ikki turga bo‘linar ekan;

1. **To‘liq**
2. **To‘liq bo‘lmagan**

To‘liq reduplikatsiyada reduplikativ so‘zning ikkala komponenti ham hech kanday o‘zgarishsiz, o‘zining leksik ma‘nosini saqlagan holda yangi grammatik

<sup>1</sup> 1, Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2002. – B. 101.

<sup>2</sup> Пейсиков Л. С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1973.- С. 163. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Изд. фирма «Восточная литература» РАН, 2001. – С. 160.

ma'noni anglatib takrorlanadi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda to'liq reduplikatsiya A-A, AI-AI modellari orqali ifoda etiladi. Pushtu tilida sifatlar, otlar, sonlar, fe'llar, ravishlar to'la takrorlanadi (reduplikatsiya). Har bir takror o'z vazifasiga ega. Jumladan,

**1.Sifatlarning takrorlanishi**, uning lug'aviy ma'nosidagi sifat belgisini maksimal darajada ro'yobga chiqishini ko'rsatadi.

کمزوري سترگې يې له ډېره ژړا نه سره سره راوختي

[kamzōri st̄rgi ye l̄ ǰēri ǰarā na srē srē rávux̄te]

(Uning zaif ko'zlari ko'p yig'laganidan qattiq qizarib, (qip-qizil)ketdi)

**2.Ravish yoki otlarning takrori.** Bu ravishli iboralarga kiradigan so'zlar kuchaytirish ma'nosiga ega.<sup>3</sup>

اوس چې د ځمکي اهميت ورځ په ورځ زياتيږي او دغه ژابي او ځنگلونو ورو ورو په زراعتي ځمکي بدلېږي.

[ōs che d̄ ǰm̄ko ahamiyāt vradz n̄ vradz zīātēǰi dāga ǰǰabé au ǰzanǰalūna vrō vrō n̄ z̄raītū ǰm̄ko bād̄lēǰi]

(Yerning ahamiyati kundan kunga oshib borayotgan bugungi kunda, bu botqoqliklar va changalzorlar asta-sekin (so'zma-so'z, asta-asta) ekinzorlarga aylanmoqda)

په زور زور يې په بالښت سر اوچت کړی

[n̄ zōr zōr ye n̄ bāl̄x̄t sar ūčāt kry]

(u katta qiyinchilik bilan (qiyinchilik-qiyinchilik)bilan boshini yostiqtan ko'tardi).

**3.Fe'llarning takrori.** Fe'llarning o'tgan zamon tugallanmagan so'z shakllaridan birining takrori davomiylik grammatik ma'nosini kuchaytiradi

دوی په تلو تلو بازار ته وراوړل

[tl̄l̄ tl̄l̄ n̄ Bāra bāzdarā vāraḡl̄l̄]

(ular yurib-yurib bozorga yetib keldi)

**4.Olmoshlarning takrorlanishi.** Konkretlashtirish va aniqlashtirish ma'nosini beradi. So'roq olmoshlari, کوم کوم؟ “qanday” va noaniq – so'roq olmoshi”؟ څوک څوک “kim”, “kimdir”, takrorlanishi mumkin.

څوک څوک څي؟

[çōk çōk ǰz̄ȳ]?

<sup>3</sup> Равишли иборалар хақида қаранг: Л. С. Яцевич, Порядок слов в простом предложении в современном афганском языке (пушту), - канд. дисс., М., 1953

(Kim kim ketyapti)

**5. Sonlarning takrorlanishi.** Distributivlik ma'nosini ifodalaydi.

يو بىو bitta-bittalab, دوه دوه ikkalalashib

دي هلكانو ته دوه دوه كتابونه ورکره

[*de hal'kano ta dva dva kitabu'na var'ka*]

(Bu bolalarga ikkitalab kitob ber)

To'liq reduplikatsiyaning yuqorida ko'rib o'tilgan barcha holatlari shunga ishonch hosil qildiradiki, bu takrorlar, odatda yangi so'zlar yasamaydi. Ular faqat nutq jarayonida vujudga keladi va notiq tomonidan, ekspressiv qirralarini ifodalashga va hikoyaning jonli qilish uslubiy yondoshuvi sifatida foydalaniladi. Demak, ularni erkin so'z birikmalari qatoriga kiritish mumkin. Faqat ba'zi holatlarda takrorlar yangi so'z hosil qilishi mumkin, كله [kla] qachon lekin كله كله [kla kla] ba'zida, دول [davl] qiyofa, ko'rinish ammo, دول دول [davl-davl] turli xil degan ma'no beradi. Bu hollarda qo'shma so'z to'raligicha yangi ma'no hosil qiladi.

**To'liqsiz reduplikatsiya.**

Takrorning shunday bir turiki undagi komponentlardan biri mustaqil ravishda ishlatilmaydi, balki faqat ma'noga umumiylik tusini bag'ishlaydi. To'liqsiz reduplikatsiyalar asosan so'zlashuv va og'zaki nutqda keng qo'llaniladi. So'zlashuv nutqida ko'p ishlatilgan prozava dramatik asarlarda bu turdagi leksikaning qo'llanishi ulardagi tabiiylik va jozibadorlikni yanada oshirishga hizmat qiladi.

Rus olimasi Z.M. Kalinina pashtu tilidagi to'liqsiz reduplikatsiyalarni ikki guruhga ajratib o'rgangan<sup>4</sup>: 1) to'liqsiz reduplikatsiyadagi birinchi komponent (ot yoki sifat) muayyan bir ma'noni anglatadi va tilda mustaqil qo'llana oladi, ikkinchi komponent esa birinchi komponentga nisbatan fonetik o'zgargan variant bo'lib, mustaqil leksik ma'no anglatmaydi. Shu sababli bu takror hodisasi "ritmik-qofiyali yoki exo-konstruksiyali reduplikatsiya deb ham ataladi; 2) to'liqsiz reduplikatsiyaning ikkinchi guruhida esa alohida qo'llana olmaydigan va mustaqil ma'noga ega bo'lmagan komponentlar qatnashadi, ikkinchi komponent xuddi birinchi guruhga o'xshab birinchi komponentga mos ravishda qofiyalanadi (alliteratsiya hodisasiga uchraydi). Demak ikkala guruh o'rtasidagi farq – takrordagi birinchi komponentning ma'no anglatish yoki anglatmasligida o'z ifodasini topadi:

1. **Ritmik-qofiyali yoki exo-konstruksiyali reduplikatsiya**

Ushbu guruhdagi noto'liq reduplikatsiyaning birinchi komponentida ot so'z turkumining takrorlanishi sermahsulir<sup>15</sup>. Bunda ikkinchi komponentning birinchi tovushi ko'p hollarda م [m] yoki [پ] tovushi bilan almashadi va ma'no kuchayadi<sup>16</sup>. Masalan, so'zlashuv tilida ishlatiladigan [دكان موكان dukān-mukān] "do'kon-mo'kon", ya'ni biron-bir savdo shoxobchasi ma'nosini beruvchi so'z bunga misol bo'la oladi

<sup>4</sup> Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. –Москва, 1972. –С.98.

yoki [ شرم پرم šarm-parm] “sharm-hayo”.

ovqat-povqat	duḍey-muḍey	دودى مودى
sharm-hayo	šarm-parm	شرم پرم
uy-puy	kor-mor	کور مور
dori-pori	dawā mawā	دوا موا
go‘gurt-po‘gurt	gogər mogər	گوگر موگر

ابراهيم تري د اسماعيل د حال احوال پوښتنه وكړه، بنځي وويل بهر وتلى چې دودى مودى راوړي<sup>5</sup>  
 [ibrāhim tre də ismāyil də hāl ahwāl poštəna wukra, šedze wuwayəl bahar watəlay  
 če **duḍeymuḍey** rawuṛi]

“Ibrohim undan Ismoilning hol ahvolini so‘radi, ayol esa uni **yegulik (ovqat-povqat)** olib kelish uchun tashqariga chiqqanini aytdi”.

Noto‘liq reduplikatsiyalar ma‘noni umumlashtirishdan tashqari uni kuchaytirishni ham anglata oladi. Bunda birinchi komponentdagi ot ko‘plikda ifodalansa, ritmik qofiyalanayotgan ikkinchi komponent ham ko‘plik shaklini oladi.<sup>6</sup>

yangiliklar,	xabaruna-	خبرونه مبرونه
xabarlar	mabaruna	
yig‘ilish, uchrashuv	nāste-paste	ناستپاستي
kiyim-kechak	kāli-māli	کالي مالي

Ikkinchi komponent ritmik qofiyalanayotganda uning birinchi **tovushi [t], [w] va [š]** tovushlari bilan ham almashib kela oladi:

qilayotgan ish	kaṛa waṛa	کړه وړه
stol	mez-šez	میز شیز
choy-poy	čāy-šāy	چای شای

جدي څېره تېره کاته، له تحکم او هيبته ډک حرکات<sup>7</sup>

[jedi **cera tera** kātə, lə tahkim aw haybata ɖak harakāt]

“Jiddiy **tashqi ko‘rinish**, mustahkam va haybat to‘la harakatni kuzatardi”.

Noto‘liq reduplikatsiyaning birinchi komponentida sifatning takrorlaninshi:

yosh	dzawān-jayān	خوان جيان
------	--------------	-----------

<sup>5</sup> <https://kabull.com>

<sup>6</sup> <https://quizlet.com/194699521/rhyming-words-flash-cards/>

<sup>7</sup> اکبر بری. د سپوږمۍ سرتکه، کابل، ۲۰۰۲م کال. ص 7

qing'ir-qiyshiq, egri-bugri	kaĵe waĵe	کږې وږې
tartibsiz	tət pət	تت پت
juda katta	ġaṭ paṭ	غټ پټ
kirlangan, buzilgan	laṭ paṭ	لټ پټ
qing'ir-qiyshiq	kṛing pṛing	کړینگ پړینگ

بڼه غټ پټ پښتون به وي له خلکو به پوښتني په پردی ژبه کوي؟<sup>8</sup>

[šə ġaṭ paṭ paštun bæ wi læ xalko bæ poštane pə pradey ĵeba kawi?]

“Odamlardan boshqa tilda savollar so‘rayotgan **gavdali** kishi pashtundir??”.

Ritmik qofiyalanayotganda ikkinchi komponentning birinchi harfi hardoin ham almashib kelmaydi. Masalan:

yashirin, maxviy	pəṭ pəṭunay	پټ پټونى
otishma	ḍazo ḍuza	دزو دوزه
shox-shabba	čaṅ čaṅo	چن چنو
tarqoqlik	xān xāney	خان خانى
olomon	gaṇa guṇa	گنه گونه
hazil-huzul	ṭoke ṭəkāle	توکي تکالي
xilma-xil	belā bel	بېلا بېل

سگرت پلورونکي خبرو چې فلم نوی لگول شوی، ده ته دا هم ورمالومه وه، چې پر هر نوي فلم د خلکو ډیره گنه گونه وي

[sigreṭ plorunki xabaro če film neway lagawəl šway, də ta dā ham wərmaluma wa, če pər har nəwi film də xalko ḍera **gaṇa guṇa** wi]

“Sigaret sotuvchisi film yangi olinganligini va har bir yangi filmga odamlar **olomoni** yig‘ililishini bilardi”.

Qofiyali-ritmik reduplikatsiyaning ichki fleksiya orqali ikkinchi elementni takrorlanishida [ā] yoki [o] unlisiga o‘zgarishi ham ko‘p uchraydi. Bunda ikkinchi o‘rinda takrorlanayotgan so‘z ham leksik ma‘noga ega bo‘ladi:

هغ ه چوپ چاپ تولي کوتي معاینه کړي

[haġa čūp čāp ṭole koṭe mu'āyna kṛe]

“U barcha xonalarni **jimgina** tekshirdi”

<sup>8</sup> <https://www.bbc.com/pashto/afghanistan-46949369>

Shuningdek, ikki mustaqil bir- biriga hamohang bo‘lgan so‘zlarning birikishi natijasida: چارو “yechim”, “احوال hol-ahvol” so‘zlari qofiyalanib kelib ikkala komponenti ham ma’no berib, reduplikatsiya holiga kelib qolgan:

ابراهيم تري د اسماعيل د حال احوال پوښتنه وکړه، بنځي وويل بهر وتلی چي ډوډی موډی راوړي

[ibrāhim tre də ismāyil də **hāl ahwāl** poštəna wukra, šedze wuwayəl bahar watəlay če duđeymuđey rawuři]

“Ibrohim undan Ismoilning **hol ahvolini** so‘radi, ayol esa uni yegulik olib kelish uchun tashqariga chiqqanini aytdi”.

Noto‘liq reduplikatsiyalarga kiruvchi yana bir qancha misollar:

albatta, istasa-istamasa	aro maro	ارو مرو
hayron-hayron	heş peş	هېښ پېښ
hangu-mang	hāk pāk	هک پک
u yondan bu yonga ag‘darilmoq	awuštəl-rāawuštəl	اوبنځل را اوبنځلو
o‘girmoq, aylantirmoq, burmoq	aṙawəl rā aṙawel	اړول را اړول

Noto‘liq reduplikatsiyaning ikkinchi guruhi kammahsul bo‘lib, bu guruhga taqlidiy so‘zlar kiradi<sup>9</sup>. Bunda ikkala komponent ham alohida qo‘llana olmaydi va mustaqil ma’noga ega bo‘lmaydi.

[ tap tup توپ توپ ] tapur-tupur (oyoq ovozigaga nisbatan) [ tik tək tik tək ] tik-tik (soatning chiqqilashiga nisbatan) [ drab drub دراب دراب ] dukur-dukur (dukurlagan ovozigaga nisbatan).

### Xulosa

Pashtu tilida reduplikatsiyaning tuzilish va hosil bo‘lish yo‘llari turli xil ekanligini angladik. To‘liq va to‘liqsiz takror so‘zlarning yasaliş usullari o‘ziga xos va rang-barang ekanligining govohi bo‘ldik va tahlilni quyidagicha xulosalash mumkin;

1. Ritmik-qofiyali/ exo-konstruksiya reduplikatsiyada birinchi komponent ko‘proq ot yoki sifat orqali ifodalanishi kuzatildi. Bunda ikkinchi o‘rinda takrorlanayotgan so‘z [ p ] yoki [ m ] tovushi bilan almashinishi sermahsul ekanligi ham misollar yordamida dalillandi.

2. Noto‘liq reduplikatsiyada birinchi komponentdagi ot ko‘plikda ifodalansa, ritmik qofiyalanayotgan ikkinchi komponent ham ko‘plik shaklini oladi va umumiylik

<sup>9</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Изд. фирма «Восточная литература» РАН, 2001. – С. 160.

ma'nosini kuchaytiradi.

3. Ritmik qofiyalanayotganda ikkinchi komponentning birinchi tovushi [t], [w] va [ʃ] tovushlari bilan ham almashib kela olishi aniqlandi.

4. Ritmik qofiyalanayotganda ikkinchi komponentning birinchi tovushi hardoin ham almashib kelmasligi misollar oqrali dalillandi.

5. Shuningdek, ikki mustaqil bir- biriga hamohang bo'lgan so'zlarning o'zaro birikishi natijasida

tayyor reduplikatsiya holiga kelib qolgan so'zlar ham borligi ( ) حال احوال, لارو ( ) چارو kuzatildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2002. - B. 01. 2. Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. – Москва, 1972. – С.98.

2. Лингвистический энциклопедический словарь. 2-издание, дополненное. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – С.408.

3. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Изд. фирма «Восточная литература» РАН, 2001. – С. 160.

4. صدیق الله رشتین، پښتو قیصی. ص- 4.

اکبر بری. د سپورمی سرتگه، کابل، ۹۰۰۲ م کال.

۶۸۳۱ م کال. ص- ۲۲. څیرنمل ژواک. پرونی هنداره، کابل،

7. <https://www.pashtowraza/posts/689441714576673>

8. <https://quizlet.com/194699521/rhyming-words-flash-cards/>

9. <https://kabull.com>

10. <https://www.bbc.com/pashto/afghanistan-46949369>